

**Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodi va faoliyati**

*Ohangaron tumani maktab va maktabgacha*

*ta'lim tasarrufidagi 35-umumiy*

*o'rta ta'lim maktabi ona tili*

*va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Saydaliyeva Shaxlo Abdimuminovna**

+998 93 110 82 14

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, ma'rifatparvar shoir, o'qituvchi, jamoat arbobi, dramaturg, jurnalist Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayot yo'li, uning shaxsiyatiga xos bo'lgan xususiyatlarning turli davrlarda turlicha talqin etilgani haqida so'z boradi. Tarixiy haqiqatni qaror toptirish uchun Hamza shaxsiga va ijodiga xolisona yondashuv lozimligini ham ayni shu jihatga ahamiyat berilishi zarurligi muhokamaga tortilganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek ushbu maqolada shoir shaxsidan inqilobchi, dahriy timsollari zo'ra-zo'rakilik bilan yasalgani, aslida adibning ma'rifatparvarlik ruhidagi noto'g'ri talqin qilingani haqida mulohazalar o'rin olgan. Hamzaning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.*

**Kalit so'zlar:** *hamza Hakimzoda Niyoziy, Ibn Yamin Niyoz, "Maysaraning ishi", Gasprali vafoti, Andreyev ismindagi Skobel maorif rahbari*

Hamza Hakimzoda Niyoziy – XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan, shoir, dramaturg, teatr arbobi, pedagog. U adabiy ijod bilan musiqa, rejissorlik san'atini qo'shib olib bordi, natijada olmas sahna asarlarini yaratdi: "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", "Maysaraning ishi" kabi she'riy to'plam va dramalari mana shunday ijodning yorqin namunalaridir. Hamza Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati shakllanayotgan bir pallada badiiy ijodga kirib keldi va bu harakatining

butun mazmunidan shakl-u shamoyiligacha uning badiiy ijodi va amaliy faoliyatida o'z ifodasini topdi. Jadid pedagogi sifatida usuli savtiya maktablari ochdi va ular uchun bir necha darslik va majmualar yaratdi.

Hamza 1889-yil 6-marta Qo'qonda ziyoli oilada – tabib Ibn Yamin Niyoz o'g'li oilasida tug'ildi. Ibn yamin o'zbek, arab, fors tillarida ancha savodli bo'lib, Qo'qon ulamosi orasida katta e'tiborga loyiq tabib edi. Hamza dastlab mahalla maktabida, 1899-1906-yillarda Qo'qon madrasalarida o'qidi, birmuncha vaqt rus tuzem maktabida rus tilini o'rgandi.

XX asr boshlarida sodir bo'layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir qildi.

“Tarjimon” gazetasini muntazam kuzatib borgan Gaspralining 1906-1907- yillarda shu gazeta sahifalarida bosilgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o'lkasining mustamlaka asorati botqoqiga tushib qolishi sabalari haqida bahs yurituvchi “Mukolamai salotin” asari bilan tanishib bo'lgan. Hamza 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabi ochadi. Bu davrda u Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va uning atrofidagi shogirlari usuli jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Shokirjon Rahmiylar, Samiyqori bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

1911-yilda Qo'qon shahrida yana usuli jadid maktabini ochadi va bu maktablar chor ma'murlarining taqibi bilan yopiladi. U 1911-yili haj safariga jo'naydi va safari orqali Afgoniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston mamlakatlarida bo'ladi. Bu davlarda safarda bo'lishining asosiy maqsadi bu o'zga ya'ni mustaqil mamlakatlarda o'qish tizimi qanday ekanligi, mustaqil aholi qanday hayot kechirishi haqda boshqa davlatlarning urf-odatlarini hamda madaniyatini o'rganishiga bo'lgan qiziqishi undagan. Hamza o'z vatanini mustaqil holda ko'rishni shu darajada istardiki, hatto o'z hayoti jar yoqasida bo'lishiga qaramay xalqining ongini, dunyoqarashini o'zgartirishga jon jahdi bilan kirishdi. U haj safaridan kelgach, pedagogik faoliyat bilan cheklanib qolmay adabiy-badiiy ijod bilan ham shug'ullanadi. 1914-yilda birinchi Marg'ilonda,

keyin esa Qo‘qonda usuli maktablarini ochdi. Bu haqda o‘zining “Tarjimai holi”da yozgan edi . Unda shunday deyilgan: “1914-yilning oxirlarida Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oyga bormay, Andreyev ismindagi Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... undan yana Xo‘qand kelib, yo‘qsil bolalar uchun pulsiz o‘qish maktabi ochdim... ozim 4 oyga davom ettirganidan keyin uezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo‘lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog‘ozlarim qo‘liga tushmaganligi uchun qamalmay qutildim”. Hamzaning ushbu gaplari orqali biz maktab ochish orqasida o‘z manfaatini emas balki xalqning manfaati haqda ko‘p qayg‘urganligini sezish mumkin. Hamza millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli faje ahvolga tushgan Turkistonni yig‘lashga da’vat etadi: Sen shunday yig‘laginki, hatto “ruhsiz tanlar tebransin”, seni shunday ahvolga solsin, o‘zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg‘onsin! “lom-lom Mamajon” ashulasidagi sho‘x ohangni o‘rnini qayg‘u va uning ohangida millatni ilm-marifatga da’vat egallaydi:

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,  
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur‘onda farmon,  
Ma‘rifatsiz tonulmas ahkomi imon,  
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.  
Yig‘la, yig‘la, Turkiston,  
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Umuman, Hamzaning milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar majmuasiga kirgan she‘riy to‘pamlamlar nafaqat o‘quvchilar, hatto san’atkor hofizlar o‘rtasida ham katta shuhrat qozongan. Bu haqda Hamza ijodining dastlabki tashkilotchilaridan Sotti Husayn shunday yozgan edi: “U tor doiradagi o‘quvchiular o‘rtasidagina emas, ashulachilar o‘rtasida ham tarqala boshlangan. Shuning bilan baravar bu ashulalar to‘shdami...reakdion kuchlarning ruhoniylarning qattiq g‘azabiga uchragan.

Ko‘pgina o‘zbek ijodkorlari qatori Hamza dunyoqarashining takomilida jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali va uning “Tarjimon” gazetasining roli katta bo‘lgan. 1914-yil 11-sentyabrda Gasprali

vafoti munosabati bilan hamma o‘zbek jadid ijodkorlari singari Hamza ham o‘z hamdardligini bildirib, “Yavmul-vafot” maqolasini va “Marsiya” she‘rini e‘lon qiladi.

Albatta, Hamzaning mustamlakachilarga qarata aytgan jasoratli so‘zlari vaqtli hukumatga ham, uning o‘lkadagi hamtovoqlariga ham ma‘qul bo‘lmadi. Hamza Oktyabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar hokimiyatini qo‘llab quvvatlovchi she‘rlar, qo‘shiqlar bitdi, bolsheviklar hokimiyatining yangi shakldagi mustamlakachilik ko‘ra olmadi. Ba‘zan o‘z qobiliyatini badiiy ijodga emas, sho‘ro hukumatining targ‘ibot-tashviqot ishlariga safarbar etdi. Uning 20-yillarining o‘rtalarida yaratgan “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi, “Bugungi qozilar yoki Maysaraning ishi” hajviy komediyasi o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san‘ati taraqqiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Hamza 1926-yil 27-fevralda “Ozbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning mustaqillik uchun qilgan harakatlari, uning xalq dunyoqarashining sezilarli darajada o‘sishi uchun misli ko‘rilmagan darajada harakat qildi. Uning asarlari, she‘rlari orqali mustaqillik sari qanchalik jonini berib harakat qilishini anglab olish oson. Vatanini mustaqil ko‘rish niyatidan hatto yo‘qsil bolalar uchun tekin maktab ochdi. Garchi maktablari ko‘p faoliyat yuritmagan bo‘lsa ham maktabda yangi sinalgan usullar oraqali darslar o‘tildi. Uni vatanparvar shaxs sifatida namuna qilsak hech ham yanglishgan bo‘lmaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1- Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004